

# KAMBAG‘ALLIK QIQARTIRISH MUAMMOSI VA UNI BARTARAF

## ETISHNING O‘ZIGA XOS MASALALARI

Farg ‘ona soliq texnikumi yetakchi o‘qituvchisi

**X.O‘rmonov**

Farg‘ona soliq texnikumi o‘quvchisi

**Sobirjonova A.X**

Farg‘ona soliq texnikumi o‘quvchisi

**Axmadjonova D.A**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kambag‘allik tushunchasi, kambag‘allik muammosi va uni mamlakatda bartaraf etishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kambag‘allik tushunchasi, kambag‘allik muammosi, iqtisodiy islohotlar

Bugungi kunda kambag‘allik muammosi umumbashariy hodisa sifatida dunyodagi barcha davlatlarda uchraydi. Zamonaviy dunyoda kambag‘allik fenomeni keng tarqalgan bo‘lib, Afrika davlatlari aholisining 44,6 foizi, Lotin Amerikasida 55 foiz va Osiyoda 33,5 foiz aholi kambag‘al holatda hayot kechiradi. Kambag‘allikning bunday tahlikali dinamikasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutdan kelib chiqib kambag‘allik har xil bo‘lib, nisbiy mazmunga ega bo‘ladi. Qashshoqlashish, kambag‘allashish muammosining oldini olish, aholi bandligini ta’minlash, ularning tadbirkorlikka oid intilishlarini rag‘batlantirish iqtisodiy islohotlarni ro‘yogga chiqarishning muhim kaliti hisoblanadiki, pirovardida, aholi farovonligi yaxshilana boradi. SHu o‘rinda ta’kidlash kerakki, aholi daromadlaridagi tengsizlik bozor tizimining belgisi bo‘lar ekan, bu tizimda kambag‘allarning bo‘lishi ob’ektiv hodisadir. SHu sababli kambag‘allikni tugatib bo‘lmaydi, lekin uning miqyosi qisqarishi mumkin. Boisi, kambag‘allik millatning sog‘ligi, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi.

SHuningdek, uning oqibati natijasida davlat byudjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo‘ladi.

Mamlakatimizda kambag‘allik muammosining keskinligini 2020 yil 25 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilk bor ma’lum qildi. Xususan, murojaatnomada hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi, hisob-kitoblarga ko‘ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etishi ta’kidlandi. Bu o‘rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. SHu bois mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdir. Iqtisodiy tahlillarga ko‘ra, kambag‘allikni oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, kredit berish bilan qisqartirib bo‘lmaydi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish, boqimandalikni tugatish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali erishiladi. Bugungi kunda O‘zbekistondagi islohotlar “Inson manfaatlari har narsadan ustun” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bu tamoyil Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish dasturining “Hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyili bilan hamohangdir. Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, kambag‘allik darajasi 2000 yildan beri ikki barobarga kamayib, 2000 yildagi 28% dan 2019 yilda 11% ga tushdi. SHu bilan birga, hududiy tengsizlik saqlanib qolmoqda va hatto yildan-yilga oshib bormoqda [2]. Mamlakatimizda 2020 yil hukumat tomonidan kiritilgan qat’iy karantin choralaridan so‘ng barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning yarmi pandemianing dastlabki bosqichida o‘z faoliyatini vaqtinchalik to‘xtatdi. Yalpi ichki mahsulot prognoz qilingan 5,7 foizli iqtisodiy o‘sish 1,6 foizga tushib ketdi. Tashqi savdo, investitsiyalar va pul o‘tkazmalari hajmi sezilarli darajada kamaydi. Bularning bari iqtisodiyotga va, ayniqsa, aholining kambag‘al qatlamiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning o‘sishi barqaror bo‘lib qolgani bilan, hisob-kitoblarga ko‘ra, aholining 1,3 foizi yoki 448 ming nafar inson inqiroz tufayli

kambag‘allik domiga tushdi [3]. Kambag‘allik tushunchasiga iqtisodiy adabiyotlarda juda ko‘p tavsiflar berilgan. Xususan, xalqaro tashkilotlar tomonidan ham kambag‘allik tushunchasiga ta’riflar berilgan hamda bu yondashuvlar muayyan xususiyatga ega. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan kambag‘allik kategoriyasiga quyidagicha qarashlar mavjud: “Kambag‘allik bu tanlov va imkoniyatlarning yetishmasligi va insonlar kadr-qimmatining poymol qilinishi bo‘lib, insonlarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etishdagi imkoniyat hamda qobiliyatining yetishmasligini anglatadi. Bu degani, oila uchun belgilangan miqdorda oziq-ovqat va kiyim-kechak yo‘qligi, o‘qish uchun maktab yoki poliklinikaning mavjud emasligi, oziq-ovqat yetishtirish uchun yerning, pul topish uchun ishslashning va kredit olishga zarur sharoitning yaratilmaganidir. SHuningdek, odamlar, uy xo‘jaliklari va boshqa iqtisodiy sub’ektlar xavfsizligi ta’milanmaganligi, noqulay sanitariya sharoitida yashashini anglatadi” [4]. Bu ta’rifda kambag‘allikning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy turlariga alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Inson jamiyatdagi barcha siyosiy jarayonlarda faol ishtirokchi bo‘lishi, buning uchun dastlabki zaruriy moddiy ne’matlar bilan ta’milanishi, bilim oli shi va turli kasallikkarda davolanishi kerak bo‘ladi. Bunda ish o‘rniga ega bo‘lish, biznesni yuritishda kredit olish mexanizmlarining yaratilganligiga jiddiy qaraladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1992 yilning 12 dekabrida A-RES-47-196-sonli rezolyutsiya qabul qilib, har yili 17 oktyabrni “Xalqaro qashshoqlikka qarshi kurash kuni” deb e’lon qilgan. Jahon banki tomonidan ham kambag‘allik muammosini qisqartirish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, kambag‘allik kategoriyasi quyidagicha izohlanadi: “Kambag‘allik ko‘p o‘lchamga ega bo‘lib, insonlarning aniq daromadlarga ega bo‘lmasligidir. Bu kam daromadga ega insonlarning yashash uchun zarur bo‘lgan asosiy tovar va xizmatlarni yetarli darajada sotib ololmasligi, shuningdek, sog‘liqni saqlash va ta’limning yomonligi, toza suv va sanitariya sharoitining yomonlashib borishi, xavfsizlikning yetarli emasligini bildiradi [4]”. Bu ta’rifning muhim jihat shundaki, kambag‘allikning sababi sifatida yetarlichcha bo‘limgan daromadlarga e’tibor beriladi. Aholi daromadlarining kamligi yoki umuman yo‘qligi tirikchilik vositalarini

sotib ololmasligini keltirib chiqaradi. Yetarlicha ovqatlanmaslik esa kasallik hamda kambag‘allikka yo‘l ochadi. Bugungi kunda har ikki xalqaro tashkilot o‘z oldiga turli dunyoviy muammolarni, xususan, jahonda kambag‘allikni qisqartirishga alohida e’tibor bermoqda.

Yuqorida bildirilgan fikrlar o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, bizning fikrimizcha, kambag‘allik bu bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zgaruvchan daromadlar tengsizligi va boshqa ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy va demografik jarayonlar bilan bog‘langan munosabatlarning mahsuli bo‘lib, insonlarning minimal iste’moli uchun zarur ne’matlarning yetarli bo‘lmaslidir. Qashshoqlik esa uzoq davom etgan kambag‘allikning natijasi bo‘lib, insonning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromad va resurslarni xarid qilish imkoniyatining yo‘qligini bildiradi. Albatta, kambag‘allik kategoriyasi orqali ifodalanadigan ijtimoiy munosabatlarni insonning qobiliyatlari va ularning iqtisodiy hayotda ishga solinishidan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Mamlakatimiz qishloq joylarida kambag‘allikni kamaytirish, aholi bandligini ta’minlashda tomorqa xo‘jaligi muhim o‘rin tutadi. Aholiga urug‘lik va ko‘chat yetkazib berish, xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha 244 ta “Tomorqa xizmati” korxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tomorqada yangi loyihalarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan 350 mlrd. so‘m ajratildi. Keyingi yillarda respublikamizning ko‘plab tumanlarida tomorqadan samarali foydalanib, aholi bandligi va shaxsiy manfaatdorlikka erishishda yuqori natijalarga erishmoqdalar. Misol uchun, Asaka, Oltinko‘l, Namangan, Uychi, Angor, Jarqo‘rg‘on, Kitob, Tayloq, Samarqand, Yangiyo‘l, Zangiota, Oltiariq, Quva kabi tumanlardagi aksariyat tomorqalarda 2-3 marta hosil olinib, bitta oila 8-10 sotixli ekin maydonidan o‘rtacha 50-60 million so‘m, ba’zilar esa 100 million so‘m daromad olyapti. Demak, “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarning tomorqadan foydalanishlarini qo‘llab-quvvatlash ularni kambag‘allikdan chiqarishga imkon beradi. Mamlakatimizda ish bilan band bo‘limganlarni ijtimoiy himoya qilish bilan birga, mehnat bozorini boshqarishda keyingi ikki yil ichida davlatning faolligi sezilarli darajada ortmoqda. Bu, avvalo, fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ish bilan ta’minka

nish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va majburiy mehnatga batamom barham berishda ko‘zga tashlanadi. Xususan, mamlakatimizda 2020 yildan boshlab “Har bir yoshga bir gektar” loyihasi amaliyatga tatbiq etila boshlandi. Mazkur loyiha yoshlar o‘rtasida ishsizlikning oldini olish, aholi kambag‘alligini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, loyiha doirasida 25 ming gektardan ziyod yer maydonlari yoshlarga ajratildi. Keyingi yillarda Davlatimiz rahbarining aynan ishsizlik muammosini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlari bu borada qator ijobiy natijalar bermoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бедность в современной экономической системе. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.01. кандидат экономических наук. Хуснутдинова Лилия Мухаметвалеевна. Казань. 2012 г. 3-стр.
2. 2021-2030 yillarda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. 2021.
3. Всемирный банк 2020 год. Результаты опроса «Слушая граждан Узбекистана». <https://ru.qwe.wiki/wiki/Poverty>